

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
4. Sog'inov Nurmat AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
5. Zaitov Elyor MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
6. Алексеева Виктория СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
7. Kayumov Kaxramon DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
9. Mahammadjanov G'olibjon GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
10. Qozoqov Sobirjon O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
11. Нуруллаева Джамиля СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
12. Mahammadjanov G'olibjon JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Каюмов Кахрамон,

О'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTİKASINING SOTSIOLOGİK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052533>

ANNOTATSİYA

Mazkur maqolada deviant hulq-atvor tushunchasi, uning namoyon bo'lishi va oqibatlarini hamda uni oldini olishda sotsial nazorat institutlarining ahamiyatini yoritishga harakat qilingan. XXI asr zamonaviy taraqqiyot asri bo'lib, unda jamiyat taraqqiyoti jadallik bilan amalga oshmoqda. Ushbu jarayonda texnik taraqqiyot bilan birga, yangi qadriyat va madaniyatlar o'zini namoyon qilmoqda. Texnik taraqqiyot davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy tarmoqlarning va axborot almashish maydoning keng masshtabligidadir. Ushbu makon o'zining ijobiy jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon etmoqda. Shu bilan birga OAV ning rivoji va unda beriladigan ma'lumotlarning kishilar ijtimoiy hayotidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ushbu makon va uning deviant hulq-atvorning vujudga kelishidagi o'rnini yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: deviant, internet, virtual olam, axborot makoni, ijtimoiy tarmoqlar, shaxs xususiyatlari, muammoli holat, sotsal nazorat.

Каюмов Кахрамон,

Университет журналистики
и массовых коммуникаций Узбекистана
Заведующий кафедрой Социально-гуманитарных наук
доктор философии (PhD) по социологии
e-mail: nqayumov@inbox.ru

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОФИЛАКТИКИ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье предпринимается попытка пролить свет на понятие девиантного поведения, его проявления и последствия, а также на значение институтов социального контроля в его профилактике. XXI век – век современного развития, в котором стремительно происходит развитие общества. В этом процессе наряду с техническим прогрессом возникают новые ценности и культуры. Одной из основных характеристик эпохи технического развития является широкий масштаб социальных сетей и пространства обмена информацией. Это пространство имеет как положительные стороны, так и отрицательные последствия. В то же время все большее значение приобретает развитие средств массовой информации и роль

предоставляемой в них информации в общественной жизни людей. В статье предпринята попытка пролить свет на это пространство и его роль в возникновении девиантного поведения. В статье делается попытка осветить это пространство и его место в возникновении девиантного поведения.

Ключевые слова: девиантный, интернет, виртуальный мир, информационное пространство, социальные сети, черты личности, проблемная ситуация, социальный контроль.

Kayumov Kahramon,
Uzbekistan journalism and Mass Communications
Head of the Department of social and humanitarian
Sciences of the University
Doctor of philosophy in sociology (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

A SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE PREVENTION OF DEVIANT BEHAVIOR

ABSTRACT

This article attempts to highlight the concept of deviant behavior, its manifestations and consequences, as well as the importance of institutions of social control in its prevention. The 21st century is a modern age of development in which the progress of society is in full swing. In this process, along with technological progress, new values and cultures are emerging. One of the main features of the era of technological progress is the large-scale nature of social networks and the sphere of information exchange. This space has both positive and negative consequences. At the same time, the development of the media and the role of the information provided in them in people's public life are becoming important. The article attempts to highlight this space and its place in the emergence of deviant behavior.

Keywords: deviant, Internet, virtual world, information space, social networks, personality traits, problematic situation, social control.

KIRISH

Zamonaviy taraqqiyot jadallashib borayotgan bugungi kunda insoniyat uchun zarur bo'lgan yutuqlar bilan birga turli ijtimoiy muammolar ko'lami ham kengayib bormoqda. Bu o'z navbatida turli soha vakillarini ilmiy tadqiqotlar olib borishga undaydi. Sotsiolog olimlar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday ijtimoiy hodisani ilmiy o'rganishga va yechim topishga harakat qiladilar. Jumladan, bugungi kunda ijtimoiy me'yorlarni buzuvsh shaxslar salmog'i ham ortib bormoqda. Buning sabablari va oqibatlari sotsiologlarni qiziqtiradi. Sotsiologiya tarixida ushbu muammoni o'rgangan olimlar ichida Emil Dyurkgeyim ta'limoti hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U o'zining "O'z joniga qasd qilish" asarida XIX asr ohiridagi Fransiyadagi deviant-hulq atvor holatlarini yoritib bergan. Bunda u nafaqat tez sodir etiladigan o'lim balki, o'limga olib boruvchi omillar borasida ham batfsil to'htalib o'tgan. Bugungi kunda deviant hulq-atvorning turlari ko'payib bormoqda. Jumladan, XXI asrda deviant hulq-atvorni odam savdosi, bir jinslilar nikohi, terrorizm kabi yangi turlari vujudga keldi. Agar ichkilikbozlik, fohishabozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish, poraxo'rlik kabi turlari tarixdan ma'lum bo'lgan bo'lsa yangi turlari jamiyat taraqqiyotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammoning ilmiy jihatdan tadqiq qilish kelajak avlodlar uchun muhim hisoblanadi. Sotsiolog olimlar bilan birga psixologlar ham ushbu muammoni psixologik sabablarini tadqiq qiladilar. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ushbu muammo dolzarblik kasb etadi.

METODOLOGIYA

Deviant so'zi - lotincha "deviatio" so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant hulq-atvor mavjud jamiyatda o'rnatilgan huquqiy, axloq, diniy, urf odat me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy xodisadir. Madaniy me'yorlarga zid bo'lgan har qanday hulq-atvor deviantlikdir. Deviantlik odatda ikki turga ajraladi.

Birinchiidan, jinoyat rasmiy qabul qilingan qonunlarni buzish bo‘lib, u formal deviantlik deb ataladi. Bunga misol sifatida qaroqchilik, o‘g‘rilik, zo‘rlash, qotillik, tahdid qilishni keltirish mumkin [1]. Ikkinchi turdagi deviantlik qonunlarda rasman ko‘zda tutilmagan noformal sotsial me‘yorlarni buzish bo‘lib, u norasmiy deviantlik deb ataladi. Masalan, jamoat joylarida telefonda uzoq suhbatlashish, qattiq tovushda kekirish kabi misollarni keltirish mumkin. Deviant hulq-atvorni jamiyat uchun ikkita muhim vazifani bajaradi. Birinchiidan, agar guruh, jamoa, jamiyat bu deviant hulqni vaqtida anglab yetmasa, u jamiyatni tanazzulga olib boradi. Bu yerda u ogohlantirish funksiyasini bajaradi. Ikkinchiidan, jamiyatdagi ma‘lum bir qonunlarni eskirganligini ifodalaydi. Bu o‘z o‘rnida ma‘lum bir qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish zaruriyatini anglatadi. Bu o‘z navbatida ushbu muammoni ilmiy o‘rganish va tahlil qilish, unga yechim topish kabi vazifalarni sotsiolog olimlarni oldiga qo‘yadi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy G‘arb sotsiologiyasida deviant xulq-atvoriga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko‘p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo‘lishi turi jinoyatchilik bo‘lib, ijtimoiy me‘orning buzilishi sifatida ushbu hodisa fanda juda qadimdan o‘rganilgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib pozitivistik maktab shakllanishi bilan jinoyatchilikni ham sababiylikda o‘rganuvchi ta‘limotlar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, italiyalik sotsial psixiatr Ch.Lombrozo Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, “jinoyatchilar tug‘ma bo‘lishadi” degan xulosaga keladi. Uning shogirdi E.Ferri jinoyatchilik sotsiologiyasi asarida ushbu omilga qo‘shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko‘rsatadi. Keyinchalik ushbu ta‘limotlar turli tanqidlarga uchragan bo‘lsada, hozirgi kungacha ham G‘arb sotsiologiyasining ba‘zi namoyondalari ushbu ta‘limotning u yoki bu yo‘nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda. Ularning ta‘limotlariga ko‘ra ichki sekresiya bezlari, aqliy rivojlanganlik darajasi, xromosomalarning tuzilishi va irsiy sabablar jinoyatchilik va shu kabilarni tug‘ma yoki biologik omillarni shakllanishiga ta‘sir qiladi [2, -736].

Yuqoridagi ta‘limotga qarama-qarshi o‘laroq, sotsiologiyada ijtimoiy me‘yor buzish jarayonlarini to‘la ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta‘limot E.Dyurkgeymning anomiya g‘oyasi edi. Bunga ko‘ra eski me‘yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o‘rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat‘iy axloqning mavjud emasligi tushuniladi [3, - P.486]. “O‘z joniga qasd qilish” kitobi 1897-yilda nashrdan chiqqan va undan ushbu muammoni o‘rganishda amalga oshirilgan sotsiologik tadqiqotlar joy olgan. Olim o‘z joniga qasd qilish psixologik emas, balki, sotsiologik sabablar bilan yuz berishini ta‘kidlashdan charchamagan.

Bugungi kunda deviant hulq-atvorni namoyon bo‘lishi va uning oldini olish muammosi kundan kunga dolzarblik kasb etmoqda. Sotsiologik adabiyotlarda deviant hulq - atvor tushunchasi orqali quyidagi holatlar tushiniladi:

Birinchiidan, insonning mavjud jamiyatdagi rasmiy jihatdan qabul qilingan yoki qaror topgan me‘yorlari, ya‘ni “ruhiy sog‘lomlik, huquqiy, madaniy yoki ahloq me‘yorlari”ga mos kelmaydigan xatti-harakatlari, qilmishlari;

Ikkinchiidan, mavjud jamiyatdagi rasmiy jihatdan qabul qilingan yoki qaror topgan me‘yorlariga mos kelmaydigan tarzdagi inson xatti-harakatlarining ommaviy shaklda ifodalanishi, ijtimoiy hodisa;

Uchinchiidan, deviant hulq-atvor bevosita umumiy va yoshga oid psixologiya, pedagogika va psixiatriya predmeti sifatida o‘rin tutadi.

Shuningdek, deviantlik bugungi kunda madaniy me‘yorlar buzilishi deb tan olinayapti. Shuning uchun deviantlik juda keng ma‘noda iste‘mol qilinadi. J.Macionis deviant hulq-atvor to‘g‘risida fikr berar ekan, deviantlikning bir kategoriyasi bo‘lib, u jinoyat shaklida mavjud bo‘ladi. Lekin, jinoyatni o‘zi keng spektrni qamrab oladi, ya‘ni yo‘l harakati qoidalarini buzishdek kichik qoidabuzarlikdan tortib, foxishalik, jinsiy zo‘rlash va xatto qotillikni ham ifodalaydi [4, – P.738] deb ta‘kidlaydi.

Amerikalik olim Bekker esa deviant hulq atvor ijtimoiy muhit ta‘sirida shakllanishini etirof etadi. Hamda kishilarni 4 toifaga bo‘ladi. Bular, konformistlar, haqiqiy deviantlar, yo‘lg‘on

jinoyatchilar hamda jinoyatlari sezilmaydigan jinoyatchilar toifasi. Ushbu toifadagi kishilar deyarli barcha jamiyatlarda uchraydi [5, – P.272].

Deviant hulq atvor turlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu hulq-atvor turli jamiyatlarda turlicha qabul qilinadi. Jumladan, Yevropada nikohsiz birga yashash oddiy holat hisoblansa, bu musulmon mamlakatlarida deviant hulq hisoblendi. Yoki tanasini pulga sotish har ikki hududda ham og'ma hulq hisoblanadi.

Bu mavzuga doir qarashlar G'arblik E.Dyurkgeyim, Ch.Lomborozo, amerikalik olimlar R.Merton jamiyatdagi maqsad va vositalarni qabul qilishga qarab, Ch.Kuli shaxs ijtimoiylashuvida deviantlikning vujudga kelish sabablarini fan doirasida tadqiq qilgan bo'lsa, Sharq mutafakkirlari asarlarida ushbu mavzuga doir qarashlar uzoq o'tmishda o'z aksini topgan [6, 7]. Jumladan, Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fazilatli shahar aholisining fazilatli va johil shahar aholisining illatlari to'g'risidagi qarashlarida, Ibn Sino o'z asarida komil insonni tarbiyalash masalasiga o'z e'tiborini qaratgan [8, 9]. Bunda illatlardan voz kechish va fazillatlari shakllantirish masalasi aynan deviant hulq-atvor profilaktikasi muammosiga tegishlidir. Jumladan, farzand tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan Ibn Sino farzand tarbiyasi mushkul ish bo'lib unda farzandga nisbatan ota onaning munosabati va uning natijasi bo'yicha qimmatli fikrlarni bildirgan. Bunda farzandni battol (mehrsiz) bo'lmasligi uchun unga mehr ko'rsatish, boshqalar bilan solishtirmaslik, yutuqlarini etirof etish, tanqid qilavermaslik, yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga kelishini ta'kidlaydi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Xulqlarning barchasi o'z tabiati bilan go'zal, yomon xulq-atvorlarga esa keyin erishilgan bo'ladi degan qimmatli fikrlarini bildirgan.

Bugungi kunda olimlari tomonidan deviant hulq-atvorni o'rganish ancha jadallashgan. Jumladan quyidagi olimlarni fikrlarini keltirish asosli. Jamiyatda omma tomonidan ma'qullanmaydigan barcha hulq-atvor me'yorlaridan og'ish holatlari deviant hulq-atvor sifatida belgilanadi. Deviant hulq-atvorning asosiy shakllari keng ma'noda Ya.I.Gilinskiy va V.S.Afanasev [10, – B.520] tomonidan quyidagicha ko'rsatilgan: Alkogolizm va mastlik, giyovhvandlikka ruju qo'yish, jinoyatchilik, o'z joniga qasd qilish, fohishabozlik, besaqolbozlik.

Ayrim holatlarda deviant hulq-atvorga qimor o'yinlari, ruhiy buzilishlar, shuningdek, jinoiy ishlar ham kiritiladi. Deviant hulq-atvorning barcha turdagi shakllarini umumiy ko'rinishda uchta guruhga ajratib chiqish mumkin: xususiy deviant, delikvent va kriminal (jinoiy) hulq-atvor.

Hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida deviant hulq-atvor masalasiga qiziqishning ortishi kuzatilmoqda. Deviant hulq-atvorning ilmiy jihatdan o'rganilishi kriminologiya, psixopatologiya, sotsiologiya, ijtimoiy ish, pedagogika sohalarida amalga oshiriladi [11].

Deviant hulq-atvorni me'yorlar haqida tushunchaga ega bo'lmasdan turib aniqlash mumkin emas. Tibbiyotda me'yor – bu butunlay sog'lom insonni anglatadi; pedagogikada – barcha fan predmetlarini o'zlashtirishga ulguruvchi o'quvchini; ijtimoiy hayotda esa – jinoyatchilikning mavjud emasligini ifodalab beradi. Ushbu o'rinda psixologik jihatdan me'yorni ko'pchilik insonlarda mavjud bo'lgan, bir qator xususiyatlar yig'indisi sifatida, ya'ni hulq-atvor etaloni sifatida belgilash masalasi qiyin hisoblanadi.

Ijtimoiy me'yor ma'lum bir aniq jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni davomida qaror topgan choralar, chegaralar, ruxsat etilish intervali (erkin va majburiy) hulq-atvor asosidagi insonlar va ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatini ifodalab beradi. Biologik va fizik jarayonlarning tabiiy me'yorlari ijtimoiy me'yorlardan farq qilib, jamiyat faoliyati davomida insonlarning ob'ektiv xatti-harakatlari, bu holatlarning ongda adekvat va siqilgan tarzda aks etishi qonuniyatlari sifatida tarkib topadi.

"Delinkvent hulq-atvor" tushunchasi huquqiy va ijtimoiy me'yorlarning yetarlicha darajada keng spektrda buzilishlarini ifodalab beradi. Delinkvent hulq-atvor huquqiy me'yorlarni buzish nuqtai nazaridan jinoyat kodeksi bo'yicha jazoga tortilmaydigan holat bo'lib, kichik bezorilik, magazindan oziq-ovqat mahsulotlarini kam miqdorda o'g'irlash, og'ir tan jarohatlari yetkazmagan holatda janjallashish, aldash va hakovzoldan tashkil topadi. Kriminalogiyada bu holat yoshlar ommasiga tegishli (o'smirlik davrida) huquqbuzarlik sifatida tavsiflanadi. Bu holat yoshlar orasida

ayniqsa 12 yoshdan 20 yoshgacha oraliqda (ko'proq erkak jinsida) yoshlarning qonunbuzarlik darajasi yuqoriligi va sud, ma'muriy jazolashda yuqori darajada o'rin tutishini belgilab beradi.

BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, barcha yoshlarning 30%ga yaqin qismi qandaydir qonunga hilof isoblangan xatti-harakatlarda ishtirok etishi kuzatiladi, shuningdek 5% qismi jiddiy tarzda qonunbuzarlikka yo'l qo'yiladi [11, – B.462].

A.I.Kravchenko tomonidan xususiy deviant va delinkvent hulq-atvorning o'zaro farqlanishi quyidagicha ifodalanadi: Deviant va delikvent hulq-atvor – bu me'yoriy hulq-atvordan og'ishning ikki shaklidir. Bunda birinchi shakl nisbatan kam ahamiyatga ega bo'lib, ikkinchisi absolyut va sezilarlidir. Masalan, bu ko'rinishdagi guruhlashga ko'chada bezorilik bilan shug'ullanuvchi o'smirlar to'dasi navbatdagi qilmishni amalga oshirish davomida to'daning qandaydir bir a'zosini deviatiya sifatida ishtirok etishdan mahrum qilishi mumkin. Bu qilmishning o'zi militsiya va ushbu ko'chada yashovchi aholi tomonidan deviant hulq-atvor sifatida baholanadi. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, Kravchenko tomonidan yozilgan me'yorlarga qarshi hisoblangan va shu sababli qonun orqali ta'qib qilinuvchi barcha qilmishlar, jumladan biz kriminal deb baholovchi xatti-harakatlar ham delikvent hulq-atvor guruhiga kiritiladi.

Deviant hulq-atvor bo'yicha tadqiqotlarda ko'pgina holatlarda guruh tarkibiga turli xildagi ko'plab hulq-atvor shakllari – giyohvand moddalarni qabul qilishga ruju qo'yishdan futbol musobaqasida bezorilik qilishgacha va xatto sehrgarlik, jodugarlik bilan shug'ullanish kabilar ham kiritilib, bu hulq-atvor shakllariga deviantlik yoki delinkventlik yorlig'i yopishtiriladi.

Deviant hulq-atvor sotsiologiyasi ushbu ko'rinishda, hulq-atvorning an'anaviy kriminologiyada qonun yo'li bilan ta'qib qilinishga qaraganda nisbatan keng ko'lamdagi, bir tomonlama bo'lmagan kategoriyalarini tadqiqot obyekti sifatida qabul qiladi.

Shuningdek, kriminal hulq-atvoriga nisbatan alohida to'xtalib o'tish talab qilinadi. Jinoyatchilikka nisbatan munosabatda umumiy qabul qilingan qarashlardan biri sifatida – bu shunchaki yomon insonlardan iboratligi, ularga nisbatan yagona munosabat – bu ularni jazolashdan iborat deb bilish bilan bog'liq hisoblanadi. Insonlar ayrim holatlarda bir parcha non o'g'irlaganlik uchun aybdorni osgan, boshqa holatlarda jazo tariqasida esa o'g'ri tamg'asi kuydirib bosilgan yoki qulog'i kesib olingan. Biroq, bu ko'rinishdagi qat'iy qattiqo'l tartibdagi jazolashlar ish bermagan: jazo usullaridan majruhlik ortganiga qaramasdan jinoyatchilik yuzlab yillar davomida avj olgan va yuqori darajada saqlanishi kuzatiladi.

Bugunig kunda ayrim holatlarni keltirish mumkinki bu holatlar ham bevosta deviant-hulq atvorni kengayishiga olib kelmoqda. Internetdan foydalanish masalasida ko'pgina holatlar mavjud bo'lib, salbiylik kasb etmoqda. Internetdan ijobiy ma'noda foydalanuvchilar bundan mustasno. Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish bu borada muhim hisoblandan. Bugun yoshlar, umuman internetdan foydalanuvchilar o'rtacha bir kunda 5-6 soatgacha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlari kuzatilmog'da. Bu virtual olamda kimlardir ilm tarqatish, kimlardir o'z hohish istaklari ortidan pul ishlash payida bo'lmoqdalar. Bu tarmoqlar orqali faxsh ishlarni ommalashtirish, oson pul topishga targ'ib qilish orqali kishilar hulqini buzishga harakat qilish holatlari kundan kunga ortib bormog'da. Bunday holatlarni oldini olish uchun sotsial nazorat institutlari o'z vazifasini to'laqonli bajarishlari lozim.

Bu borada yuqorida keltirib o'tganimiz, shaxs hususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan shaxsdagi irsiy omillar, undagi psixofizologik o'zgarishlar hamda bilimlilik darjasi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bugun bu muammoni ilmiy o'rganish, tadqiq qilish, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarni oldini olish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda deviant-hulq atvorni turlari ko'payib kengayib bormog'da. Shu bilan birga ushbu jarayonlarga oddiy holat sifatida qarash shakllanmog'da.

Birinchidan, bu o'z navbatida milliy qadriyat va urf-odatlarini yo'qolishiga borishiga sabab bo'ladi;

Ikkinchidan, insonlarni bu holatlarga murosasiz munosabati yo'qolib borishiga olib keladi;

Uchinchidan, jamiyat tomonidan bu holatlarni qabul qilinishi uning ommalshishiga turtki bo'ladi;

To‘rtinchidan, yosh avlodni kelajak hayotiga havf tug‘diradi;
Beshinchidan, vaqt qadriga yetmaslik oqibatida kelajak avlodni kelajagi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi uchun imkoniyatlarni kamaytiradi;
Oltinchidan, sotsial nazorat institutlarini oqilona vazifalarini boshqa foydasiz vazifalarga almashinishiga turtki bo‘ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Introduction to Sociology. – P.99.
2. Гениальность и помешательство. Человек преступный, Ломброзо Чезаре; Издательство. ООО “Издательская Группа” “Азбука-Аттикус”; – 2022. – С. 736.
3. Durkheim, Émile (1858-1917). Le Suicide, étude de sociologie, par Émile Durkheim, – 1897. – P.486.
4. Sociology / John J. Macionis, Kenyon College. – Sixteenth Edition. –2014. –P.738.
5. Howard S. Bekker. Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance. New Yourk: Free Press, 1991 / Говард Беккер; пер. с англ. Наиля Фархатдинова; под общ. ред. Андрея Корбута. – М.: Элементарные формы, 2018. – 272 с.
6. Мертон Р.К. Социальная структура и аномия // Социология преступности. – М.: Прогресс, 1966. – С. 299-313.
7. Кули Ч.Х. Избранное: Сб. переводов / РАН. ИНИОН. Центр социал. научн.-информ. исследований. Отд. социологии и социальной психологии; Сост. и переводчик В. Г. Николаев. отв. ред. Д.В.Ефременко. – М., 2019. – 234 с.
8. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент: “Янги аср авлоди” 2018. – Б.320.
9. Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: “Наука”, 1980 – С.200.
10. Гишинский Я.И. Девиантология: социология преступности, наркотизма, проституции, самоубийств и других “отклонений”. – СПб.: Издательство “Юридический центр Пресс”, 2004. – 520 с.
11. Ланцова Л.А., Шурупова М.Ф. Социологическая теория девиантного поведения // Социально-политический журнал. – 1993. – № 4.
12. Добренков В.И. Кравченко А.И. Социология: В 3 т. Т.3: Социальные институты и процессы. – М.: ИНФРА-М, 2000 г. – С. 462.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000